



ISLOM DINI QADRIYATLARI VA MA'RIFATINING HOZIRGI ZAMONDAGI AHAMIYATI

Sadinov Ma'ruf

Ilmi rahbar:

Fayzullayeva Dilorom

Samarqand davlat Chet Tillari Instituti 2301 – guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15396210>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 13-May 2025 yil

KEY WORDS

Islom dini, qadriyatlari, ma'rifat, diniy bag'rikenglik, diniy va dunyoviy

ABSTRACT

Ushbu maqolada Islom dini qadriyatlarining rivojlanayotgan davrdagi omillari hamda jamiyatdagi ba'zi jabhalarga diniy va dunyoviy jihatdan aloqadorligining ta'siri haqida bir qancha fikrlar izohlab keltirilgan.

Turli xalqlar va millatlar hayotiga islomiy qadriyatlar kirib borganida dastlab qarshilikka uchragan. Islom dini o'zining insonparvarlikka asoslangan qadriyatlari tizimini tavsifa qilar ekan, murosas va kelishish yo'lidan foydalangan.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllanib boraverdi. Milliy qadriyatlarimiz millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog'liq holda shakllandi. Qardosh xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-hududiy qadriyatlari ravnaqi bilan uzviy aloqadorlikda davom etaverdi. Shu tariqa millatimiz o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni takomillashtirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning qirralarini rivojlantirib, qadriyatlari mustahkamlana bordi.

Milliy qadriyatlarimiz rivojlanishida islom dinining o'rni juda katta bo'lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dini keltirgan insonparvar g'oyalar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Islom dini kelganidan keyin Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyatlar tizimi yangilandi, zaminimizdan ko'plab mutafakkirlar, qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Shuningdek, bu din o'zining bunyodkorlik taomiliga ko'ra ko'plab me'moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'ldi. Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g'oyalari va ko'rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ldi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – yagona e'tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror hisoblanadi.

Bu borada marhum Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida quyidagi fikrni keltirganlar: "Bizning musulmonchiligimiz, Allohga, dinimizga munosabatimiz ba'zi milliy qadriyatlarimizda ham yaqqol ko'rinadiki, har bir musulmon yurtdoshimiz ularga beixtiyor

rioya qiladi”.

Islom qadriyatlari va ma’rifat hozirgi davrda inson hayotining turli jabhalarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Misol qilib:

1. Islom qadriyatlari va ularning mohiyati.

Islom qadriyatlari Qur’on va Hadislarga asoslangan holda insoniyat uchun eng muhim axloqiy va ijtimoiy tamoyillarni belgilaydi. Ushbu qadriyatlar orasida quyidagilar alohida ajralib turadi:

Adolat - insonlar o’rtasida tenglik va huquqning ta’minlanishi.

Halollik va rostgo’ylik - ishlarda va so’zlarda halol bo’lish.

Mehr-oqibat va kechirimlilik - yaqinlar va jamiyat bilan munosabatlarda bag’rikenglik.

Mehnatsevarlik va mas’uliyat - har bir ishni vijdonan va mas’uliyat bilan bajarish.

Bu qadriyatlar nafaqat diniy hayot, balki kundalik hayotda ham tartib va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

2. Ma’rifatning ahamiyati:

Ma’rifat - islom dinida o’ta muhim o’rin tutadi. Qur’onda “O’qish” buyrug’i (“Iqro”) bilan boshlanishi, bilim olish va ma’rifatni targ’ib qilishning muhimligini ko’rsatadi:

Ilm-ma’rifatning fazilati - payg’ambar Muhammad (s.a.v) “Ilm talab qilish har bir musulmon uchun farzdir” deb marhamat qilgan.

Zamonaviy fan va texnologiya - islom ta’limotida ilm olish va uni hayotga tadbqiq qilish rag’batlantiriladi. Hozirgi kunda musulmon olimlar zamonaviy fan, texnologiya va tibbiyot sohalarida ulkan yutuqlarga erishmoqda.

Ma’naviy va moddiy taraqqiyot - ma’rifat nafaqat individual rivojlanishga, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham hissa qo’shadi.

3. Hozirgi zamonda Islom qadriyatlari va ma’rifatning ahamiyati. Bugungi globallashuv va axborot asrida Islom qadriyatlari va ma’rifatning ahamiyati quyidagi yo’nalishlarda yaqqol namoyon bo’ladi:

Jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash - islom dinidagi bag’rikenglik, hurmat va adolat tamoyillari jamiyatlararo hamkorlikni rivojlantirishda muhim vosita bo’lmoqda. Diniy ma’rifat esa ekstremizm va noto’g’ri tushunchalarga qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi.

Axloqiy va ma’naviy tarbiya - axloqiy qadriyatlar yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vosita hisoblanadi. Ma’rifat orqali insonlarda o’z-o’zini tarbiyalash, ruhiy va jismoniy sog’lomlikni ta’minlashga ko’mak beriladi.

Ijtimoiy muammolarni hal qilish - islomda zakot va sadaqa tizimlari orqali kambag’allikka qarshi kurash va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga hissa qo’shiladi. Ma’rifat orqali insonlarning huquq va burchlarini anglab yetishiga imkon yaratiladi.

4. Islom qadriyatlari va ma’rifatning global ta’siri.

Hozirgi davrda Islom qadriyatlari va ma’rifatning global miqyosdagi ahamiyati quyidagicha namoyon bo’lmoqda:

Muloqot va integratsiya - islom dunyosi va boshqa madaniyatlar o’rtasida muloqotni rivojlantirish.

Ekologik mas’uliyat - Qur’onda tabiatni muhofaza qilishga oid ko’rsatmalar bugungi ekologik muammolarni hal qilishda foydali bo’lmoqda.

Inson huquqlari - islom qadriyatlari inson huquqlarini hurmat qilishga undaydi va bu xalqaro miqyosda qo’llanmoqda.

5. O'zbekiston misolida Islom qadriyatlari va ma'rifat.

O'zbekistonda Islom qadriyatlari va ma'rifat davlat siyosatida ham o'z aksini topmoqda:

Ta'lim tizimi - maktab va oliy ta'lim muassasalarida diniy ma'rifat targ'ib qilinmoqda.

Madaniy meros - hadis ilmi va Islom madaniyatiga oid asarlar tiklanmoqda (Imom Buxoriy, Imom Termiziy, va boshqalar).

Tinchlik siyosati - diniy bag'rikenglik tamoyillari asosida jamiyatda millatlararo va dinlararo muloqot rivojlantirilmoqda. Milliy qadriyatlarimiz tarkibidagi ba'zi islomiy qadriyatlarimiz kishilarning yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog'liqlikda shakllandi. Shu sababli ham mintaqamizda bizning turmush tarzimiz, shart-sharoitlarimizga mos tarzda shariatning hanafiylik yo'nalishi rivojlandi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning ma'naviy merosi, an'analari, urf-odatlar, adabiyoti, san'ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo'lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarida o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Mo'minov, X. Yo'ldoshxo'jayev, D. Raximjonov, M. Komilov, A. Abdusattorov, A. Oripov. – DINSHUNOSLIK. – T.: Toshkent – "Mehnat", 2004.
2. A. Rippin, J. Knappert. – TEXTUAL SOURCES FOR THE STUDY OF ISLAM. – T.: Chicago, 1990.
3. ISLOM VA MILLIY QADRIYATLAR. - <https://muslim.uz>.

INNOVATIVE
ACADEMY